

BARQAROR TARAQQIYOT OMILLARI VA ULARNING IJTIMOIY-IQTISODIY JARAYONLARGA TA'SIRI

Alijon SHOMURODOV,

ISFT instituti katta o'qituvchisi

Annotatsiya

ibtidoiy odamlarning butun umri tabiat injiqliklariga bog'liq bo'lgan, dastlabki siyosiy tizim hisoblangan–qabilalar ittifoqi, favqulodda vaziyatlarning oldini olish uchun kurash tarixini shartli ravishda uch bosqichga bo'lib tizimlashtirish mumkin, taraqqiyotda ekstensiv usuldan ko'proq foydalanishga harakat qilganligidir.

Kalit so'zlar

antropogen ta'sir, diniy qarashlar, antik dunyo, zilzila, obyektiv qonunlar, subyektiv qonunlar, tabiiy ofatlar, ekstensiv usul.

Аннотация

вся жизнь первобытных людей зависела от капризов природы, первобытным политическим строем считалось объединение племен, историю борьбы за предотвращение чрезвычайных ситуаций можно условно систематизировать на три этапа, и то, что они пытались больше использовать экстенсивный метод в разработке.

Ключевые слова

антропогенный эффект, религиозные воззрения, древний мир, землетрясение, объективные законы, субъективные законы, природные катаклизмы, экстенсивный метод.

Annatation

the whole life of primitive people depends on the vagaries of nature, the primitive political system is considered to be a union of tribes, the history of the struggle to prevent emergency situations can be conditionally systematized into three stages, it is the fact that they tried to use more extensive methods in development.

Key words

antropogenic effect, religious views, ancient world, earthquake, objective rules, subjective rules, natural disasters, extensive method.

Bugun insoniyatning barqaror hayot kechirishi juda ko'plab omillarga bog'liq bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, tabiatga antropogen ta'sirning kuchayishi, inson o'z ehtiyojlarini qondirishi uchun qilayotgan nooqilona harakati global muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Tabiatning obyektiv qonunlari subyektiv qonunlardan ustun ekanligini har qachongidan ham juda kech anglayotganimiz, bu anglashimiz esa tuyg'ularimiz oldida bo'yin egayotgani bizni ko'plab ofatlar va halokatlar quchog'iga irg'itishi mumkinligini hali to'la his qila olmayapmiz. Ushbu maqolada esa aynan shu va uning tarixi haqida qisqacha bo'lsa-da fikr bildirib o'tmoqchimiz.

Insoniyat tarixida yuz bergan ko'plab tabiiy ofat, halokat va falokatlardan turli darajada aziyat chekib kelgan. Shu bois ularning yuz berishini oldindan aniqlash, keltirib chiqarish ehtimoli mavjud iqtisodiy zararlarini kamaytirish, oqibatlarini bartaraf etish hamda o'z hayotini saqlab qolish maqsadida tabiiy ofatlarning kelib chiqish sabablarini o'rganish harakatida bo'lgan.

Aytish mumkinki, insoniyatning o'z xavfsizligini ta'minlash maqsadida tabiatda yuz berayotgan turli hodisalarning oldini olish va salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun harakatlari dastlab turli diniy qarashlar, keyinroq esa ilmiy yondashuvlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Xususan, ibtidoiy odamlarning butun umri tabiat injiqliklariga bog'liq bo'lganligi va ularga qarshi kurashdagi ojizligi hamda buning oqibatida doimiy hamrohi bo'lib kelgan tabiatning stixiyali hodisalaridan paydo bo'lgan qo'rquv diniy qarashlar kelib chiqishiga olib kelgan [1, 21].

Shu bois ham qadimgi xalqlar tarixida Quyosh, Oy, suv, bo'ron, shamol kabi tabiatda mavjud ko'plab jism va hodisalar xudolar nomi bilan atalgan. Jumladan, dastlabki diniy qarash bo'lgan – animizm da odamlar o'zlarini o'rab turgan muhitda jon va ruhning mavjudligiga ishonishgan. Fasllarning almashinuvi, bo'ron, momaqaldiraq, kuchli to'fonlarning yuz berishi singari hodisalarni ruhda mujassamlashgan tabiat hodisalari, [2, 144] deb tushunganlar va unga sig'inganlar. Masalan, rimliklar osmon, momaqaldiraq va yashin xudosi –Yupiter, dengiz xudosi – Neptun, Oy xudosi – Diana, olov va temirchilar xudosi – Vulqon, bahor va sevgi xudosi – Venera [2, 144] deb, misrliklar esa Quyosh xudosi – Amon-Ra, Nil xudosi – Xapi, Yerosti saltanati xudosi – Osiris, omadsizlik, sahro va bo'ron xudosi – Set, donishmandlik va tabiblik ilohi Tot – Oy [2, 144] deb bilgan bo'lsalar, yunonlar Zevsni o'zlarining ulug' xudosi deb hisoblaganlar va hokazo [3, 159].

Barcha xalqlar tarixida Quyoshning nur sochib turishi hamda tunda Oyning charog'onligi, yilning yaxshi kelayotgani, turli tabiiy ofatlar yuz bermaganligi, odamlarning tinch, osuda hayot kechirayotganligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham Quyosh va Oy xudolarini ezgulik, donishmandlik, go'zallik xudolari, deb bilganlar. Hatto Misrda Quyosh xudosi sharafiga ibodatxonalar barpo etilgan[4, 123].

Davrlar o'tishi bilan dastlabki siyosiy tizim hisoblangan – qabilalar ittifoqi, so'ngra ancha mukammallashgan davlatlar paydo bo'lgan. Bunday siyosiy tizimlarning shaklla-

nishi ijtimoiy munosabatlarning vujudga kelishida muhim o'rin egalladi. Bu tizimlar ma'lum ma'noda insoniyatning tabiatga bo'lgan munosabatini ham belgilab bergan. Albatta, u davrlarda favqulodda vaziyatlarga oid hodisalarning oldini olish, oqibatlarini bartaraf etish uchun maxsus davlat idoralari tashkil etilmagan bo'lsa-da, bu kabi vazifalar davlatning boshqa idoralari zimmasiga yuklatilgan.

Biroq, tabiat hodisalarining yuz berishi insoniyat o'tmishida ulkan yo'qotishlarga sabab bo'lgan. Moziyning guvohlik berishicha, insoniyat tafakkurining mevasi – antik dunyo madaniyatining namunalari bo'lgan, dunyoning yetti ajoyib mo'jizalaridan 4 tasi turli tushdagi favqulodda vaziyatlar oqibatida vayronaga aylangan [6, 122-123]. Masalan, mil. av. VI asrda Babil hukmdori Navuxodonosarning farmoniga binoan barpo etilgan Semiramida osma bog'lari suv toshqini oqibatida vayron bo'lgan. Milodning 365-yil 21-iyulida O'rta yer dengizining sharqiy qismida yuz bergan kuchli zilzila oqibatida paydo bo'lgan sunami Misrdagi Aleksandriya mayog'ini yakson qildi va Aleksandriyaning o'zida 5000 kishining nobud bo'lishiga olib keldi [7, 25].

Kitobda ezgulik xudosi Ahura Mazda, o'lim va yovuzlik xudosi Ahriman o'rtasidagi kurash jarayoni tabiat hodisalari bilan bog'lab izohlangan. Masalan, Ahura Mazda ikkinchi "sarzamin" So'g'dni yaratdi. "Butun borlig'i ajal bilan yo'g'rilgan Ahriman keldi-da xrafstarlar jinsiga mansub Sakayatyani yaratdi. U butun podaga o'lim urug'ini sochdi." deb aytiladi [4, 123]. Yana Ahura Mazda "Marv" ni, "Ahriman" kelib "chumoli"ni, "Ahura Mazda" kelib "Balx"ni, "Ahriman" kelib "gazandalik bilan maysa va g'allani quritadigan chigirtkani yaratdi" [8, 67] deyiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, chumoli va chigirtka galalari yuqorida qayd etilgan hudud aholisining dehqonchilik va chorvachiligiga katta zarar yetkazgan.

"Avesto" kitobining beshinchi fargardida suv, sel va olov xususida shunday deyiladi: "...Suv hech kimni o'ldirmaydi. U tan zavoli, o'lim devi Astuvayazut udirki, kimsani o'z domiga tortadi va oyoq-qo'lini mahkam bog'lab tashlaydi. Shunda selob uni o'z qa'riga tortib suv kengliklariga itqitib yuboradi" [8, 67].

Zardushtiylik dinida insonning hayot kechirish omillari bo'lgan suv, tuproq, olov, tog' va muzliklar hamda hayvonot olamiga juda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish ko'rsatilgan. Ularni sof saqlash inson yashab qolishining muhim omili hisoblangan. Hatto, suv, olov, zamin va havoni asrash qoidalarini buzgan har bir kimsa kaltaklanish bilan jazolangan.

Masalan, zardushtiylikda suvning sofligini saqlash maqsadida unga tupurish, xas, cho'p yoki boshqa biron narsa tashlash qattiq taqiqlangan. Qoidani buzganlarga tan jazosi berilgan. "Avesto" da suv manbalari bo'yida kir yuvish, mol boqish, tuya va otlarni bog'lash, tahorat olish man etilgan.

Zardushtiylikda hojatxonalar suv manbalaridan kamida 30 qadam uzoqlikda qurilishiga ruxsat berilgan. Shu o'rinda, BMT tomonidan 19-noyabr kuni "Xalqaro hojatxonalar kuni" deb nomlanishi bekorga emasligini aytib o'tish ham joiz.

Ma'lumki, O'rta Osiyoning qishi qattiq sovuq, yozi issiq-kontinental. Iqlim qadimdan odamlar hayotiga hamda ularning xo'jalik turi-dehqonchilik va chorvachilik rivojiga salbiy ta'sir qilgan. "Avesto" da bu kabi tabiiy ofatlarning keltirgan oqibatlari hamda unga qarshi kurashish va saqlanish uchun tashqi iqlimdan muhofaza qiluvchi boshpanalar barpo etish haqida gapirilgan. Masalan, "Qahrli qahratondan burun suvlar shiddat bilan oqqan bu sarzaminlarda giyoh va o't-o'lanlar g'oyat serob bo'ladi. Ammo qahraton oyog'i yetib, u butunlay kirib kelgach, qorlarning quturishini ko'rsang. Endi bu zaminda suruvlarning hayratbaxsh oqimlaridan nom-nishon topolmaysan" [4, 110] deyiladi.

Markaziy Osiyo xalqlari hayotida zardushtiylikdan so'ng kirib kelgan islom dini ham muhim o'rin egallaydi. Xalqimiz e'tiqod qilgan har ikki dinda ham tozalik, soflik, poklik va me'yor kabi xislatlar ulug'langan. Jumladan, islom dinining muqaddas kitobi Qur'oni Karimning "Qamar" surasi 49-oyatida: "Albatta, biz har narsani o'lchov bilan hal qildik" [9, 531] deyiladi. Boshqacha aytganda, dunyodagi har bir narsa: suv, tuproq, havo, hayvonot, nabotot ham Alloh tomonidan muayyan o'lchov bilan bir-biriga o'zaro bog'liq qilib yaratilgan. Agar bu muvozanat biroz buziladigan bo'lsa, insoniyat uchun ko'plab muammolar kelib chiqishi mumkin [10, 161-162].

Bundan tashqari, tarixiy manbalarda mintaqamiz davlatlari hududlarida Yer silkinishi hamda uning dahshatli oqibatlari haqida ham ma'lumotlar uchraydi. Xususan, mamlakatimiz hududida Yer qimirlashi haqidagi dastlabki ma'lumotni Abu Said Gardiziyning "Kitobi Zaynal Axbor" asarida uchramiz. Unda: hijriy "224 (838-839) yilda Farg'onada kuchli zilzila natijasida ko'plab imoratlar vayronaga aylandi", deb yozilgan. Xurosonlik muarrix Juvayniyning "Jahongir Chingizxon tarixi" asarida 1208-yil Xorazmda yuz bergan kuchli zilzila natijasida ko'plab imoratlar buzilib, 2000 kishi halok bo'lganligi, hatto Urganch shaharining bir qismi Amudaryoga cho'kib, shahar vayronaga aylanganligi haqida ma'lumot mavjud [11.28].

Tarixchi olim H.Sodiqovning "Amir Temur saltanatida xavfsizlik xizmati" kitobida tasvirlangan 1365-yil 22-maydagi "Loy jangi" dagi kuchli yog'in hamda Amir Temur qo'shinlarining 1370-yil Balxni, 1398-yil Dehlini ishg'ol qilishdan oldingi zilzila kabi tabiat hodisalarining keltirilishi ham kishilik hayotiga katta ta'sir eta olishi mumkinligiga misol bo'ladi. Muallifning ta'kidlashicha, Dehli qamali davrida yuz bergan Yer silkinishi Amir Temur lashkarini sarosimaga soladi [12, 379]. Shunda sohibqiron o'z shaxsiy harakati bilan qo'shinga ruhiy dalda berib, ularni bu sarosimadan olib chiqadi.

Muhammad Tohir ibn Abdul Qosimning "Ajoyibot Tabokot" asarida 1620-yilda Axsikent shahrida yuz bergan kuchli zilzila to'g'risida "... shunday kuchli yer qimirladiki, hatto daryoning suvlari qirg'oqlarga urilib (Sirdaryo), atrofdagi butun dashtni bosib ketdi. Qirg'oqqa chiqarib tashlangan baliqlar o'zlarini har tomonga urib nobud bo'ldi. Daraxtlar qulay boshladi. Kuchli tebranish uylarni bir zumda tep-tekis qildi va ko'p odam ana shu vayronalar tagida qolib ketdi. Shunisi qiziq-ki eng dahshatli tebranish Aysi qal'asida bo'ldi, undan

bir farsang (8 km.) masofada zilzila kuchi deyarli sezilmadi", [11, 28] deb yozilgan.

Shuningdek, Muhammad Yoqub ibn Muhammad Doniyolbiyning "Gulshan al-mulk" qo'lyozmasida 1797-1798-yilda Samarqand yaqinidagi Urgut qo'rg'onida yuz bergan yer silkinishi haqida binolar shunchalik vayronaga aylanganki, "... hatto yarim sir (1600 gr) keladigan bir bo'lak devor kesagini topish amri mahol edi", deb yozgan.

1843-yilda nashr qilingan N.V.Xanikovning "Buxoro xonligi to'g'risida" nomli asarida 1821-1822-yillarda Buxoroda yuz bergan kuchli zilzila haqida ma'lumot bor. Unda Yer tebranishining kuchi Samarqandga yetib borib, Ulug'bek madrasasi minorasini vayron qilganligi haqida aytilgan [11, 28].

Bunday dahshatli voqealar haqida Muhammad Hakimxon To'raning "Muntaxab at-tavorix" qo'lyozmasida 1822-1823-yillarda Farg'ona zilzilasi haqida: "...bunday dahshatni asrlar bo'yi hech kim ko'rmagan va sezmagani. Imoratlar buzilib, ko'p kishilar xarobalar tagida qolib halok bo'ldi. Aholi qamishlardan kapalar yasab yashadi, tog'da esa ko'p oilalarni yer yutdi. Yer yorilib, u yerdan kuchli tovush bilan qop-qora bug' otilib chiqdi. Ariqlardagi suv bo'lsa, qondagidek qaynab, har tomonga toshib ketdi. Tebranish va silkinishlar 6 oy davomida takrorlanib turdi" [11, 28] deb yozilgan.

Darvoqe, sobiq Ittifoq davrida deyarli unutilgan va mustaqillik sharofati bilan qayta tiklangan "Darveshona", "Yomg'ir yog'dirish", "Choy momo" [13] kabi ko'plab marosimlarning yuzaga kelishida ham tabiat hodisalari asosiy o'rin egallagan. Ular tabiat hodisalarining oldini olishda amaliy ahamiyat kasb etmasa-da, aholiga ma'naviy kuch bag'ishlab, odamlarni jiplashtirgan, ruhan tetiklashtirgan.

Mavzudan kelib chiqib, yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalarga tayangan holda, favqulodda vaziyatlarning oldini olish uchun kurash tarixini shartli ravishda uch bosqichga bo'lib tizimlashtirish mumkin:

Birinchi bosqich – insoniyat paydo bo'lgandan to qadimgi davlatlarning vujudga kelishigacha bo'lgan, ya'ni turli tabiiy ofatlar yuz berishini oldindan bilish hamda ularning oldini olish uchun qilingan dastlabki primitiv harakatlar davrini o'z ichiga oladi.

Bu davrda insonlar tabiat hodisalarining sabablarini bilishga harakat qilgan va ularga qarshi kurash yo'llarini izlaganlar. Jumladan, qattiq sovuq, qorli, yomg'irli kunlardan saqlanish uchun uy qurish va olovdan foydalanishni o'rganib olganlar. Kiyim-kechakning paydo bo'lishi ham ana shunday tabiat hodisasi mahsuli.

Arxeologlarning xulosalariga ko'ra, qadimgi odamlar o'z manzilgohlarida uzoq yillar davomida olovni o'chirmay yoqib turishgan. Bu ish mas'uliyatli va faxrli hisoblanib, jamoadagi eng kuchli va abjir, yosh yigitlarga topshirilgan.

Xulosa qilib aytganda, olov tufayli inson quyidagi ustuvorliklarga erishgan:

- uning hayotida yangi qo'shimcha energiya paydo bo'ldi;
- noqulay iqlim sharoitidan saqlana oldi;
- yovvoyi va yirtqich hayvonlar hamlasidan himoya qilindi;

- abiotik omillar ta'siridan himoyalandi;
- ijtimoiy bog'lanishlar mustahkamlandi;
- tabiat ustidan hukmronlik qilishiga imkoniyat yaratildi [14, 16].

Ikkinchi bosqich – eng qadimgi davlatlar paydo bo'lgan davrdan XX asrning boshlarigacha davom etib, insoniyatning tabiat hodisalarining oldini olishga qaratilgan maxsus tizimlarni yaratishgacha bo'lgan davrini o'z ichiga oladi. Bu davrda tabiiy ofatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish maqsadida muayyan ishlar amalga oshirilgan. Biroq, bunday tadbirlarga baho berishda gohida bir tomonlama yondashilgan va xulosalar qilingan. Masalan, kanallar va boshqa sug'orish inshootlarining barpo etilishi, ularning har yili tozalab turilishi, faqatgina hosildorlikni oshirish va shu orqali aholi ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan, deb talqin qilingan. Ushbu talqinlarda yuqorida ko'rsatilgan tadbirlar turli yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish, bahorgi va kuzgi suv toshqinlari yoki sel davrini talafotsiz o'tkazish, aholi yashayotgan joylarni daraxtzorlarga aylantirish, atmosferaning tozaligini saqlash, shuningdek, ko'chkilarning oldini olishga ham sabab bo'lganligiga e'tibor berilmagan.

Ilmiy adabiyotlarda Misrni "...eng birinchi gidrotexnik inshootlar vatani" [15, 170] deb aytishadi. Chunki, unda taxminan mil.av. 2950-2750-yillar oralig'ida qurilgan to'g'onlarning qoldiqlari hozirga qadar saqlanib qolgan[15, 171]. Bu inshootlar o'z davrida suv bilan bog'liq ofat va halokatlarni xavfsiz o'tkazib yuborish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qilgan.

Gidrotexnik inshootlar qadimgi Mesopotamiyada ham barpo etilgani nafaqat mintaqqa iqtisodiyoti, balki, insonlar hayotini turli tabiiy ofatlardan saqlab qolishda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Masalan, mil.av. 1792–1750-yillarda Bobilda Xammurappi hukmronligi davrida kanallar qazilib, sug'orish tarmoqlaridan foydalanish, tomorqalarni kengaytirish tartibli asosda tashkil etilgan va u davlat tomonidan nazorat qilib borilgan.

Jumladan, o'sha davrda qabul qilingan "Xammurappi qonunlari" nafaqat mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, balki ma'lum ma'noda tabiat bilan inson o'rtasidagi munosabatlarni ham tartibga solgan. Unda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash, kuchli tartib-intizom o'rnatish, o'rmonzorlarni kengaytirish, ularni kesib ketishning oldini olish, suvdan foydalanish kabi ko'plab, jumladan uylarni xavfsiz qurish kabi sohalar ham qamrab olingan. Qonunda, ayniqsa, podsho o'rmonzorlarini qo'riqlash yuzasidan bir qancha tadbirlar ko'rilgan. O'rmonzorlar uchastkalarga bo'linib, o'rmon xo'jaligining bosh mudiriga bo'ysunuvchi maxsus "uchastka mudirlari" qaramog'ida bo'lgan va ular daraxtlarni saqlash uchun javobgar hisoblangan. Sug'orish tizimi tarmoqlarini tozalash, sozlash, buzilib ketishiga yo'l qo'ymaslik vazifalari esa o'sha joyda yashayotgan aholi zimmasiga yuklatilgan.

Bunday tadbirlarni Yevropadagi davlatlar misolida ham ko'rish mumkin. Ayrim mamlakatlarda tabiatni asrash, uni qo'riqlash maqsadida turli nomdagi boshqarma yoki davlat organlari tuzilgan. Masalan, Qirol Vilgelm podsholigida (XI asr) kishilar yovvoyi cho'chqa, kiyik va quyonlarni o'ldirganligi uchun o'lim jazosiga hukm etilgan. XIV asrda esa Fransiya-

da "Suvlar va o'rmonlar" maxsus boshqarmasi faoliyat olib borgan [16, 18].

Olib borilgan bu kabi chora-tadbirlar xususida ko'plab olimlar turlicha fikrlar bildirganlar. Jumladan, huquqshunoslik fanlari doktori J.Xolmo'minov ta'rificha "Ammo bu qonunlar umumiy atrof-muhitni emas, balki, feodal mulkni saqlab qolish va muhofaza qilishga qaratilgan", [17, 30] deyilgan. Bizningcha, bu bir tomonlama xulosa qilishdan iborat.

Ehtimol bu tarixiy nuqtayi nazardan to'g'ri bo'lishi mumkin, ammo yuqorida ko'rsatib o'tgan davrlarda atrof-muhitning ifloslanishi natijasida kelib chiqadigan oqibatlar, ularning yuz berish sabablari haqida chuqur ilmiy asoslangan, tizimli bilimlar bo'lmaganini ham unutmaslik kerak. Umuman olganda, podsholarning chiqargan farmonlari ma'lum ma'noda tabiatni asrash, undagi mavjud rang-baranglikni saqlab qolishga xizmat qilgan. Zero, jamiyat va tabiatning o'zaro bog'liqligi barcha borliq va hodisalar o'rtasidagi munosabatlardan iborat. Bu bog'liqlikni buzish ko'pincha yomon oqibatlarga olib kelgan. Masalan, qadimda Misr, Yunoniston, Kichik Osiyo va boshqa hududlarda odamlar ekin ekadigan yerlarni kengaytirish maqsadida daraxtzorlarni yo'q qilishgan. Bora-bora bu maskanlar esa cho'llarga aylangan. Buning ustiga, daraxtzorlar bilan birga suv yig'iladigan manbalar ham yo'q qilib yuborilgan [18, 137].

Uchinchi bosqich. XX asr boshlaridan to hozirgi kungacha, ya'ni dunyo xaritasida yuz bergan jiddiy siyosiy o'zgarishlar pallasini, yangi mustaqil davlatlarda har tomonlama mukammal, ilmiy asosda tashkil etilgan davlat organlari va tizimlarini yaratish hamda hayotga tatbiq etish ishlari boshlangan davrni o'z ichiga oladi.

Bu bosqichning xarakterli tomoni shundaki, endilikda favqulodda vaziyatlardan hi-moyalalanish uchun boshqa davlatlar bilan kelishuvlarsiz uning oldini olish, oqibatlarini kamaytirish mumkin bo'lmay qoldi. Chunki, oldinlari favqulodda vaziyatlar ko'proq lokal, mahalliy xarakter kasb etgan bo'lsa, XX asrning boshlaridan ular ko'proq transchegaraviy tus ola boshladi.

Bunga quyidagi omillar sabab bo'ldi. Bular:

- sanoat ishlab chiqarishining o'sishi, tabiiy zaxiralarga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi;
- savdoda jahon bozori rolining o'sib borishi;
- transport vositalarining takomillashib borishi, kimyoviy zavodlar hamda aviatsiya-ning vujudga kelishi va ular mahsulotidan barcha sohalarda foydalanishning ortishi;
- davlatlarning o'zaro siyosiy, iqtisodiy sohalardagi raqobatlarda g'oliblikka intilishi oqibatida tabiatga nisbatan antropogen ta'sirning keskin ortishi;
- sobiq sotsialistik va kapitalistik tuzumning iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy jihatdan gegemonlik qilishga bo'lgan urinishlari, mustaqil davlatlarning vujudga kelishi;
- qurollanish poygasining, ya'ni yadroviy, kimyoviy-bakteriologik qurollar ishlab chiqarishning avj olishi va boshqalar.

Bu davrning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri – endigina rivojlanib kelayotgan

yosh mustaqil davlatlarni o'z ta'siriga olish uchun har ikki tuzum iqtisodiy taraqqiyotda ekstensiv usuldan ko'proq foydalanishga harakat qilganligidir. Bu esa tuproq, havo va suv tarkibi yomonlashuvining global ko'rinish olishiga sabab bo'ldi.

Oqibatda BMT ma'lumotlariga ko'ra, XX asr 60-yillarida favqulodda vaziyatlardan aziyat chekkanlar Yer yuzi aholisining 1,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 1980-yillarga kelib, u 3,5 % ga oshdi [19, 9]. Shu yuz yillikning oxirgi choragida tabiiy ofatlardan 3,5 mln kishi olamdan o'tdi, 3 mlrd dan ortiq kishi jabrlandi [19, 11]. O'tgan asrning so'nggi yillarida turli ofatlar natijasida vafot etganlar soni yiliga 6%ga o'sib bordi [19, 11]. Yoxud Bryusseldagi Halokatlar bo'yicha ilmiy izlanishlar markazining ma'lumotlari bo'yicha keyingi uch o'n yillikda tabiiy ofatlardan dunyo bo'yicha 14 mln kishi vafot etgan. Umumiy iqtisodiy yo'qotish 400 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan. Agar o'tgan asrning 60-70 yillarida turli tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlardan o'rtacha 62 kishidan bir kishi jabrlangan bo'lsa, bugun u har 55 kishidan bir kishini tashkil etmoqda [20, 9].

BMTning 2015-yil Yaponiyaning Senday shahrida bo'lib o'tgan Tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish borasidagi uchinchi Xalqaro konferensiyasida 2005-2015-yillar mobaynida tabiiy ofatlar 700 ming kishini o'limiga, 1,5 mlrd. kishining jabrlanishiga, 1,4 mlrd. kishining shikastlanishiga sabab bo'lganligi e'tirof etildi. Yana mazkur konferensiyada tabiiy ofatlar dunyo mamlakatlari iqtisodiyotiga 1,3 trillion AQSh dollari miqdorida zarar keltirganligi, shuningdek, 2008-2012-yillarda tabiiy ofatlar 144 million kishining ko'chishiga olib kelganligi qayd etildi [21.15-16].

BMT tomonidan o'tkazilgan mazkur konferensiya va unda qabul qilingan tadbirlar turli tabiiy ofatlarning oldini olish hamda ulardan muhofazalanish choralari oshirish dunyo davlatlari oldida turgan muhim ishlardan biri ekanligini ko'rsatdi. Ushbu davrga qadar BMT qoshida, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti hamda atrof-muhitni asrash bilan bog'liq bo'lgan tuzilmalarning shakllantirilishi, turli dasturlarning qabul qilinishi, shuningdek, ayrim kunlarga xalqaro tus berilishi ham buning isbotidir. Jumladan, buni har yili 13-oktabr sanasini "Tabiiy ofatlarning oldini olish Xalqaro kuni", 22-aprelni "Yer kuni" deb atalishi hamda xalqaro miqyosda o'tkazilayotgan tadbirlar misolida ham ko'rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo'rayev U., Sayidjonov Y. Dunyo dinlari tarixi. – Toshkent.: Sharq, 1998.
2. Qadimgi dunyo tarixi. Krushkol Yu.S. tahr. ost. – Toshkent: O'qituvchi, 1975.
3. Avdiyev V. I. Qadimgi dunyo tarixi. – Toshkent: Sharq, 1975.
4. Avesto. Asqar Mahkam tarjimasini. – Toshkent: Sharq, 2001.
5. Nazarov Q. Aksiologiya qadriyatlar falsafasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998.
6. U kim, bu nima. Bolalar ensiklopediyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1987.
7. Ilyosova Z. Sunami. // Muhofaza +, 2005. – № 1.

8. Hamidov H. Avesto fayzlari. – Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2001.
9. Qur’oni Karim. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf tarjiması. – Toshkent: Sharq, 2009.
10. Ibrohimov A. Ruhiy oziq maxzani. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009.
11. Ibrohimov R. Solnomalar hikoyasi // Fuqaro muhofazasi, 2002. – №1.
12. Sodiqov H. Amir Temur saltanatida xavfsizlik xizmati. – Toshkent: ART FLEX, 1916.
13. Norboyev A., Qodirova F. Qadriyatlar negizi // «Ma’rifat» gazetasi, 2010-yil 30-oktabr, №40.
14. To’xtayev S. va b. Ijtimoiy ekologiya. – Toshkent: TDPU, 2005.
15. Ilyosova Z.F. Hayot xavfsizligi asoslari. – Toshkent: Moliya, 2001.
16. Rajabov D. Inson hayoti – bebaho // Muhofaza +2005. – №1.
17. Xolmominov J. Xavf bilan yonma-yon // Muhofaza + , 2005. – №1.
18. Yo’ldoshev H.S., Avazov Sh.M. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish asoslari. – Toshkent: Mehnat, 2003.1. Жўраев У., Саиджонов Й. Дунё динлари тарихи. – Тошкент.: Шарқ, 1998.
19. Защита населения и территорий от чрезвычайных ситуаций. – Ташкент: ГЗИ, 2003.
20. Сергеев И. Предупреждение чрезвычайных ситуаций как один из элементов экологической безопасности // Экологическая безопасности гражданская инициатива, 2005. – №6.
21. Протоколы Третьей всемирной конференции ООН по снижению риска бедствий. – Сендай, 2015.